

**“O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyati Yagona aksiyadorining**  
**5 - sonli qarori**

2025-yil “8” iyul

Toshkent shahri

“O‘zenergosotish” AJ tomonidan chiqarilgan va joylashtirilgan ovoz beruvchi oddiy aksiyalar 176 592 donani tashkil etadi.

“O‘zenergosotish” AJning barcha ovoz beruvchi aksiyalari O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiyot va moliya vazirligiga tegishli bo‘lib, ushbu vazirlik Jamiyatning Yagona aksiyadori hisoblanadi.

Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 58-moddasiga asosan quyidagi masalalar yuzasidan qabul qilindi:

1. “O‘zenergosotish” AJning 2024-yil yakunlari bo‘yicha moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalari yuzasidan Jamiyat Ijro organining hisobotini ko‘rib chiqish.

2. “O‘zenergosotish” AJning 2024-yil yakunlari bo‘yicha yillik hisobotini tasdiqlash.

3. “O‘zenergosotish” AJ Kuzatuv kengashining 2024-yilda amalga oshirgan ishlari to‘g‘risidagi hisobotini ko‘rib chiqish.

4. 2024-yil yakunlari bo‘yicha “O‘zenergosotish” AJ korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash natijalarini ko‘rib chiqish.

5. “O‘zenergosotish” AJning 2024-yil yakunlari bo‘yicha moliya-xo‘jalik faoliyati yuzasidan auditorlik tashkiloti hisobotini ko‘rib chiqish.

6. “O‘zenergosotish” AJning 2024-yil yakunlari bo‘yicha foydasini (zararlari) taqsimlash masalasini ko‘rib chiqish.

7. “O‘zenergosotish” AJning affillangan shaxslari bilan kelgusida Jamiyat tomonidan kundalik xo‘jalik faoliyati jarayonida aksiyadorlarning keyingi (2025-yilning yakuni bo‘yicha) yillik umumiy yig‘ilishigacha bo‘lgan davrda tuzilishi mumkin bo‘lgan bitimlarni ma‘qullash masalasini ko‘rib chiqish.

8. “O‘zenergosotish” AJning Boshqaruv a‘zolarini saylash yoki vakolatini uzaytirish masalasini ko‘rib chiqish.

***Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan:***

“O‘zenergosotish” AJ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-sentyabrdagi PF-166-sonli qaroriga binoan, elektr energiyasini markazlashgan tartibda xarid qiluvchi va tegishli korxonalar va iste‘molchilarga belgilangan tariflarda sotuvchi hamda elektr energiyasining eksport va import operatsiyalarini shartnomalar asosida amalga oshiruvchi korxonalar sifatida tashkil etilgan bo‘lib, uning 2024-yildagi faoliyati elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi korxonalardan elektr energiyasini Jamiyat tomonidan xarid qilish va hududiy elektr tarmoqlari korxonalariga sotish funksiyasini bajarish hisobiga moliyalashtirildi.

Jamiyatning 2024-yilga mo‘ljallangan Biznes-rejasi ushbu moliyalashtirish manbalaridan kelib chiqib, “O‘zenergosotish” AJ Kuzatuv kengashining 2024-yil 27-fevraldagi 2-sonli majlisi qarori bilan tasdiqlangan.

Mazkur Biznes-rejaga ko'ra 2024-yil mobaynida Jamiyatning jami daromadlari 24 872,61 mlrd. so'mni, jami xarajatlari 24 771,13 mlrd. so'mni (shundan 24 703,92 mlrd. so'mi elektr energiyasini xaridi, 32,2 mlrd. so'mi davr xarajatlari va 35,0 mlrd. so'mi moliyaviy xarajatlar) tashkil qilishi va natijada 101,48 mlrd. so'm miqdorida sof foyda olinishi ko'zda tutilgan.

Shu bilan birga, "O'zenergositish" AJ tomonidan 2024-yil davomida yuritilgan faoliyat natijasida jami daromadlar 23 892,45 mlrd. so'mni (shundan 23 882,15 mlrd. so'mi elektr energiyasini sotishdan) tashkil etib (rejaga nisbatan 96,06%), xarajatlar 24 184,16 mlrd. so'mni (shundan 24 155,99 mlrd. so'mi xarid qilingan elektr energiyasining tannarxi, 17,89 mlrd. so'mi davr va operatsion xarajatlari, 10,26 mlrd. so'mi esa valyuta kursi farqidan zararlar) tashkil etgan holda, hisobot davrining zarari 291,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu 2024-yilda dastlab "O'zbekiston MET" AJ va keyinchalikda "O'zenergositish" AJ (2024-yilning iyulidan) tomonidan respublikadagi ishlab chiqaruvchilardan va qo'shni davlatlardan jami 79 647,6 mln. kVt.soat yoki 45 777,6 mlrd. so'mlik elektr energiyasi xarid qilinib, hududiy elektr tarmoqlari korxonalariga va qo'shni respublikalarga jami 78 513,6 mln.kVt.soat yoki 50 697,6 mlrd. so'mlik elektr energiyasi sotilgan. Bunda elektr energiyasining eksporti 2024-yilda 2981,6 mln.kVt.soatni (133,4 mln.AQSh.dollari) yoki rejaga nisbatan 120,7 foizni, elektr energiyasining importi esa 4 092,7 mln.kVt.soatni (126,7 mln. AQSh.dollari) yoki rejaga nisbatan 105,7 foizni tashkil etdi.

2024-yilda Jamiyat tomonidan ko'rilgan zararining asosiy sabablari bu energetika tizimlarining ishonchligi, barqarorligi va samaradorligini ta'minlash (chastotani rostlash) jarayonidagi omillar ta'sirida xarid qilingan har bir kVt/s elektr energiyasining narxi Biznes-rejada ko'zda tutilgan o'rtacha 554,87 so'm o'rniga amalda 564,27 so'm miqdorida (9,4 so'mga qimmatroq) shakllanganligidir.

Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan "O'zenergositish" AJning Yagona aksiyadori **qaror qiladi:**

1. Jamiyat Ijro organining 2024-yil yakunlari bo'yicha moliyaviy xo'jalik faoliyati natijalari yuzasidan hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "O'zenergositish" AJ Boshqaruv raisi (Obidjonov) Jamiyatning 2025-yilga mo'ljallangan Biznes-rejasi asosiy ko'rsatkichlarining so'zsiz bajarilishi va 2025-yilni foyda bilan yakunlash bo'yicha lozim bo'lgan barcha choralarni ko'rsin.

#### ***Kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan:***

O'zbekiston Respublikasining Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonunchiligi talablariga muvofiq aksiyadorlik jamiyatlarining yillik hisobotlari Jamiyat aksiyadorlarining hisobot yili yakuni bo'yicha umumiy yig'ilishi o'tkazilgandan so'ng ikki hafta ichida qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytiga joylashtirish orqali oshkor qilishi majburiydir.

Shu bilan birga, "O'zenergositish" AJning 2024-yil yakunlari bo'yicha moliyaviy hisobotlarga ko'ra Jamiyat buxgalteriya balansining jami aktivlari miqdori 3 718,88 mlrd. so'mni (bunda uzoq muddatli aktivlar 2,7 mlrd. so'mni va joriy aktivlar 3 716,15 mlrd.so'mni), o'zlik mablag'lari miqdori -10 334,83 mlrd. so'mni, jami majburiyatlari 14 053,7 mlrd. so'mni tashkil etgan. Shuningdek, Jamiyatning moliyaviy natijalari to'g'risidagi hisobotiga ko'ra esa 2024-yilda mahsulot sotishdan sof tushum 23 882,15

mlrd. so‘mni, asosiy faoliyatning boshqa daromadlari 1,77 mlrd. so‘mni, moliyaviy faoliyatning daromadlari 8,5 mlrd. so‘mni, jami xarajatlar 24 184,16 mlrd. so‘mni (shundan 24 155,99 mlrd. so‘mi sotilgan mahsulotning tannarxi, 17 898,98 mlrd. so‘mi davr va operatsion xarajatlar, 10,26 mlrd. so‘mi esa valyuta kursi farqidan zararlar) tashkil etgan holda, hisobot davrining zarari 291,7 mlrd. so‘mni tashkil etgan.

Ushbu moliyaviy hisobotlar asosida “O‘zenergosotish” AJning 2024-yil yakunlari bo‘yicha yillik hisoboti tayyorlangan bo‘lib, ushbu hisobot Yagona aksiyador tomonidan tasdiqlanishi zarur.

Kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan “O‘zenergosotish” AJning Yagona aksiyadori **qaror qiladi:**

1. “O‘zenergosotish” AJning 2024-yil yakunlari bo‘yicha yillik hisoboti 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. “O‘zenergosotish” AJ Boshqaruv raisi (Obidjonov) Jamiyatning 2024-yil yakunlari bo‘yicha yillik hisobotining tegishli ommaviy axborot vositalarida oshkor etilishini ta‘minlasin.

#### ***Kun tartibidagi uchinchi masala yuzasidan:***

“O‘zenergosotish” AJ Yagona aksiyadorining 2023-yil 29-noyabrdagi 2-sonli qarori bilan Jamiyatning dastlabki tarkibdagi Kuzatuv kengashi a‘zolari saylangan bo‘lib, keyinchalik Yagona aksiyadorining 2024-yil 20-iyundagi 5-sonli qarori bilan Jamiyat Kuzatuv kengashining yangi tarkibi tasdiqlangan va ushbu tarkibdagi Kuzatuv kengashi 2024-yilning oxiriga qadar Jamiyatning faoliyatiga umumiy rahbarlik qilib kelgan.

Jamiyatning Kuzatuv kengashi tarafidan 2024-yil davomida jami 5 marta kengash majlislari o‘tkazilib, ushbu majlislarda Respublikamiz qonunchiligida va Jamiyat Ustavida belgilangan vakolatlar doirasida, Jamiyat ijro organi va ichki audit xizmatining har chorak yakunlari bo‘yicha hisobotlarini ko‘rib chiqish, Jamiyatning Biznes-rejasi asosiy ko‘rsatkichlarining bajarilishi bo‘yicha hisobotlarni ko‘rib chiqish, Jamiyat tomonidan yirik bitimlar va affillangan shaxslar bilan bitimlarni tuzish, Hukumat qarorlari bilan Jamiyatga yuklatilgan vazifalarni bajarish, Jamiyatning 2024-2025-yillarga mo‘ljallangan Biznes-rejalarini tasdiqlash va Jamiyatning korporativ boshqaruv sohasidagi bir qator ichki normativ hujjatlarini tasdiqlash kabi jami 24 ta masalalar bo‘yicha tegishli qarorlar qabul qilingan.

Bundan tashqari hisobot davrida Kuzatuv kengashi tavsiyalari asosida Jamiyat Yagona aksiyadorining 3 ta qarori qabul qilingan bo‘lib, ularda asosan Jamiyatning tashkiliy tuzilmasiga o‘zgartirishlar kiritish, uning ichki me‘yoriy hujjatlarini tasdiqlash va Jamiyat ustaviga o‘zgartirishlar kiritish kabi masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilingan.

Kun tartibidagi uchinchi masala yuzasidan “O‘zenergosotish” AJning Yagona aksiyadori **qaror qiladi:**

1. “O‘zenergosotish” AJ Kuzatuv kengashi tomonidan 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

#### ***Kun tartibidagi to‘rtinchi masala yuzasidan:***

Aksiyadorlik jamiyatlari samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish Respublika Komissiyasining 2015-yil 31-dekabrdagi 9-sonli bayoni bilan Korporativ boshqaruv Kodeksi tasdiqlangan. “O‘zenergosotish” AJ

Yagona aksiyadorining 2024-yil 12-fevraldagi 3-sonli qarori bilan Jamiyat tomonidan ushbu Korporativ boshqaruv kodeksining tavsiyalariga amal qilish majburiyati qabul qilingan.

Shu bilan birga, ushbu Kodeks tavsiyalariga rioya qilishni o'z zimmasiga olgan aksiyadorlik jamiyatlarida Korporativ boshqaruv kodeksining tavsiyalari bajarilishini monitoring qilish uchun yiliga kamida bir marta korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholovchiga baholatish amalga oshiriladi.

Korporativ boshqaruv kodeksi talablarini bajarish maqsadida Jamiyatning 2024-yil yakuni bo'yicha korporativ boshqaruv tizimini baholatish uchun mustaqil baholovchi "MXXS BUSSINES GARANT AUDIT" MChJ tarafidan o'tkazilgan o'rganish va ushbu tashkilot tomonidan berilgan 2025-yil 5-maydagi korporativ boshqaruv tizimini baholash bo'yicha xulosasiga ko'ra Jamiyatning korporativ boshqaruv tizimi qoniqarli (499 ball) deb baholangan.

Kun tartibidagi to'rtinchi masala yuzasidan "O'zenergosotish" AJning Yagona aksiyadori **qaror qiladi:**

1. Mustaqil baholovchi "MXXS BUSSINES GARANT AUDIT" MChJ tomonidan "O'zenergosotish" AJning 2024-yil yakuni bo'yicha korporativ boshqaruv tizimi yuzasidan berilgan xulosasi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "O'zenergosotish" AJ Ijro organi Jamiyatda korporativ boshqaruv tizimini 2025-yilda yanda yaxshilash uchun barcha zarur choralar ko'rilishini ta'minlasin.

#### ***Kun tartibidagi beshinchi masala yuzasidan:***

"PERFECT AUDIT" MChJ auditorlik tashkiloti tomonidan "O'zenergosotish" AJning 2024-yil yakunlari bo'yicha moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligi yuzasidan auditorlik tekshiruvini o'tkazilib, mazkur auditorlik tashkiloti tomonidan ijobiy xulosa berilgan. Ushbu xulosaga ko'ra Jamiyatning 2024-yil yakunlari bo'yicha Moliyaviy hisobotlarining xalqaro standartlariga (MHXS) ko'ra daromadlar 23 882,15 mlrd so'mni, sotish tannarxi 24 155,99 mlrd. so'mni, yalpi zarar 273,84 mlrd. so'mni, umumiy va ma'muriy xarajatlar 10,08 mlrd. so'mni, valyuta kursi farqidan zarar 1,74 mlrd. so'mni, umumiy yillik zarar 291,704 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Kun tartibidagi beshinchi masala yuzasidan "O'zenergosotish" AJning Yagona aksiyadori **qaror qiladi:**

1. "PERFECT AUDIT" MChJ auditorlik tashkilotining 2024-yil yakunlari bo'yicha Jamiyatning moliyaviy xo'jalik faoliyati va moliyaviy hisobotlari yuzasidan Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga ko'ra xulosasi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

#### ***Kun tartibidagi oltinchi masala yuzasidan:***

"PERFECT AUDIT" MChJ auditorlik tashkiloti tomonidan moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS) bo'yicha taqdim etilgan xulosasiga ko'ra "O'zenergosotish" AJ 2024-yilni 291,7 mlrd. so'm miqdorida zarar bilan yakunlagan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 59-moddasiga binoan Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiradi.

Kun tartibidagi oltinchi masala yuzasidan Jamiyat 2024-yilni 291,7 mlrd. so‘m miqdorida zarar bilan yakunlaganini inobatga olib, Jamiyatning Yagona aksiyadori **qaror qiladi**:

1. “O‘zenergosotish” AJ tomonidan 2024-yil faoliyati yakunlari bo‘yicha ko‘rilgan zarar 291,7 mlrd. so‘mni tashkil etgani ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

***Kun tartibidagi yettinchi masala yuzasidan:***

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-sentabrdagi PF-166-sonli Farmoni bilan “O‘zenergosotish” AJga elektr energiyasi ishlab chiqaruvchilaridan elektr energiyasini xarid qilish hamda tegishli korxonalar va iste‘molchilarga belgilangan tariflarda sotish, elektr energiyasining eksport va import operatsiyalarini shartnomalar asosida amalga oshirish kabi vazifalar yuklatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 85-moddasiga asosan Jamiyat bitim tuzishidan manfaatdor shaxslar mazkur jamiyatga nisbatan affillangan shaxslar deb e‘tirof etiladi. Mazkur Qonunning 88-moddasida Jamiyatning kuzatuv kengashi yoki aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi affillangan shaxs bilan kelgusida jamiyat tomonidan kundalik xo‘jalik faoliyati jarayonida aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig‘ilishigacha bo‘lgan davrda tuzilishi mumkin bo‘lgan bitimni (bitimlarni) ma‘qullash haqida qaror qabul qilishga haqliligi belgilab o‘tilgan.

Shuningdek, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 88-moddasiga asosan “O‘zenergosotish” AJ tomonidan kundalik xo‘jalik faoliyatida aksiyadorlarning keyingi (2025-yilning yakuni bo‘yicha) yillik umumiy yig‘ilishigacha bo‘lgan davrda Jamiyatning affillangan shaxslari bilan tuzilishi kutilayotgan bitimlarni ma‘qullash zarur hisoblanadi.

Jamiyat Kuzatuv kengashining 2025-yil 19-maydagi 3-sonli majlisida “O‘zenergosotish” AJ tomonidan kundalik xo‘jalik faoliyati jarayonida aksiyadorlarning keyingi (2025-yilning yakuni bo‘yicha) yillik umumiy yig‘ilishigacha bo‘lgan davrda Jamiyatning affillangan shaxslari bilan amaldagi qonunchilik talablari asosida tuzilishi kutilayotgan bitimlar ro‘yxatini Jamiyatning Yagona aksiyadoriga ma‘qullash uchun kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilingan.

Kun tartibidagi yettinchi masala yuzasidan Jamiyatning Kuzatuv kengashi tavsiyalaridan kelib chiqib hamda O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 88-moddasiga asosan Jamiyatning Yagona aksiyadori **qaror qiladi**:

1. “O‘zenergosotish” AJ tomonidan kundalik xo‘jalik faoliyati jarayonida aksiyadorlarning keyingi (2025-yilning yakuni bo‘yicha) yillik umumiy yig‘ilishigacha bo‘lgan davrda Jamiyatning affillangan shaxslari bilan amaldagi qonunchilik talablari asosida tuzilishi kutilayotgan bitimlar 2-ilovaga muvofiq ma‘qullansin.

***Kun tartibidagi sakkizinchi masala yuzasidan:***

“O‘zenergosotish” AJ Ustaviga muvofiq Jamiyatning Ijro organi tarkibi 3 kishidan (Boshqaruv raisi va uning 2 ta o‘rinbosari) iborat.

“O‘zenergosotish” AJ Yagona aksiyadorining 2024-yil 14-iyundagi 4-sonli qarori bilan J.O.Obidjonov - Jamiyatning Boshqaruvi raisi, Sh.E.Karabayev - Boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari v.b. lavozimiga saylangan.

Shuningdek, "O'zenergositish" AJ Yagona aksiyadorining 2025-yil 12-martdagi 3-sonli qarori bilan J.T.Ashirboyev - Boshqaruv raisining moliyaviy-iqtisodiy masalalar bo'yicha o'rinbosari lavozimiga saylangan.

Jamiyat Kuzatuv kengashining 2025-yil 19-maydagi 3-sonli majlisida "O'zenergositish" AJ Yagona aksiyadorining 2024-yil 14-iyundagi 4-sonli va 2025-yil 12-martdagi 3-sonli qarorlari bilan saylangan Boshqaruv a'zolari bilan mehnat shartnomasini amal qilish muddatini bir yilga uzaytirish tavsiya etilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib hamda O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 59-moddasiga asosan "O'zenergositish" AJning Yagona aksiyadori kun tartibidagi sakkizinchi masala yuzasidan **qaror qiladi:**

1. "O'zenergositish" AJning amaldagi Boshqaruvi a'zolarining (Boshqaruv raisi J.O.Obidjonov, Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari v.b. Sh.E.Karabayev va Boshqaruv raisi o'rinbosari J.T.Ashirboyev) vakolati yana bir yilga uzaytirilsin.

**O'zbekiston Respublikasi**  
**Iqtisodiyot va moliya**  
**vaziri o'rinbosari**

 **X.Mustafayev**

